

Yusufjonov Bahrom Yo‘ldoshovich

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

XALQARO VALYUTA FONDI VA UNDA O‘ZBEKISTONNING O‘RNI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola O‘zbekistonning Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ) bilan olib borilayotgan hamkorlikni tahlil qiladi. 1992-yildan boshlab, O‘zbekiston jamg‘arma bilan iqtisodiy islohotlar, valyuta siyosatini erkinlashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha bir qator muhim tashabbuslar va hamkorliklarni amalga oshirdi. Ushbu hamkorlikning asosiy maqsadi – O‘zbekistonning global iqtisodiy tizimda raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashdir. Maqolada, shuningdek, O‘zbekistonning XVJ bilan o‘rnatilgan aloqalar, iqtisodiy islohotlar va moliyaviy siyosatdagi muvaffaqiyatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi, iqtisodiy islohotlar, valyuta siyosati, erkin ayirboshlash, moliyaviy barqarorlik, texnik yordam, investitsiyalar, global iqtisodiy tizim, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o‘shish.

ANNOTATION: This article analyzes Uzbekistan’s cooperation with the International Monetary Fund (IMF). Since 1992, Uzbekistan has implemented a number of important initiatives and cooperation with the Fund to promote economic reforms, liberalize monetary policy, and ensure financial stability. The main goal of this cooperation is to increase Uzbekistan’s competitiveness in the global economic system and ensure sustainable economic growth. The article also highlights Uzbekistan’s relations with the IMF, its achievements in economic reforms, and its financial policy.

Keywords: International Monetary Fund, economic reforms, monetary policy, free exchange rate, financial stability, technical assistance, investments, global economic system, competitiveness, economic growth.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется сотрудничество Узбекистана с Международным валютным фондом (МВФ). С 1992 года Узбекистан реализовал ряд важных инициатив и сотрудничества с фондом по экономическим реформам, либерализации валютной политики и обеспечению финансовой стабильности. Основной целью этого сотрудничества является повышение конкурентоспособности Узбекистана в мировой экономической системе и обеспечение стабильного экономического роста. В статье также освещаются отношения Узбекистана с МВФ, экономические реформы и успехи финансовой политики.

Ключевые слова: Международный валютный фонд, экономические реформы, валютная политика, свободный обмен, финансовая стабильность, техническая помощь, инвестиции, мировая экономическая система, конкурентоспособность, экономический рост.

KIRISH

Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF; International Monetary Fund) – BMTning ixtisoslashgan muassasasi, a‘zo mamlakatlarning valyuta hamkorligini amalga oshiradigan xalqaro tashkilot. 1944-yilda BrettonVuds (AQSH) da o‘tkazilgan xalqaro

valyutamoliya kongressida Jahon banki bilan bir vaqtda ta'sis etilgan. 1947-yil mart oyidan o'z faoliyatini boshlagan. 182 mamlakat a'zo (1999). Fondning rasmiy maqsadlari:

- maslahatlar berish va valyuta muammolari bo'yicha hamkorlik qilish orqali xalqaro valyuta hamkorligiga yordam ko'rsatish;
- xalqaro savdoning kengayishi va muvozanatli o'sishi uchun qulay sharoitlarni yaratish;
- valyuta kurelarining barqarorligiga yordam berish, raqobat tufayli yuz beradigan valyuta devalvatsiyalarining oldini olish;
- ko'p tomonlama to'lovlar tizimini yaratishda va jahon savdosini rivojiga to'siq qo'yadigan valyuta almashtirish bilan bog'liq cheklashlarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish;
- a'zo mamlakatlarga o'z to'lov balanslarini tiklash, shuningdek, ularning xalqaro to'lov balanslari taqchilligi davomiyligi va miqsorini qisqartirish uchun muddatli moliyaviy mablag'lar berish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1991-yil O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritish boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar qatorida Xalqaro valyuta jamg'armasiga a'zo bo'lib kirishi uchun shart-sharoit yaratdi. 1992-yilning 2-iyulida „O'zbekiston Respublikasining Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish uyushmasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama Agentlikka a'zoli to'g'risida“ O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi mamlakatimizni Xalqaro valyuta jamg'armasiga teng huquqli a'zo bo'lib kirishi uchun huquqiy asos bo'ldi. 1992-yil 27 aprelda O'zbekiston Xalqaro valyuta jamg'armasi a'zoliqiga qabul qilindi va Toshkent shahrida uning vakolatxonasi ochildi.

1998-yil 18-martda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining „Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida“ qarori qabul qilindi va respublikaning Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan aloqalarini yanada rivojlantirish tadbirlari ishlab chiqildi. 2002-yilda O'zbekiston Hukumati va Xalqaro valyuta jamg'armasi o'rtasida Memorandum imzolandi. 2003-yilning iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy banki tomonidan „Joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha milliy valyutani erkin ayirboshlash bo'yicha harakat rejasi“ ishlab chiqildi va u Xalqaro valyuta jamg'armasiga taqdim etildi. 2003-yilning 15 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Xalqaro valyuta jamg'armasi Bitmining 8-moddasiga imzo chekdi va milliy valyuta – so'mni joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha chet el valyutalariga erkin ayirboshlashni ta'minlash bo'yicha majburiyatni qabul qildi.

1993-yilning sentabr oyidan boshlab XVJning O'zbekitondagi vakolatxonasi ish yuritadi va u XVJning Vashingtondagi (AQSh) bosh qarorgohi (shtab-kvartirasi) bilan ma'lumotlarning tezkor ayirboshlanishini ta'minlagan holda respublikaning Jamg'arma bilan o'zaro aloqalarini amalga oshirishda hamkorlik qiladi.

2016-yilga qadar O'zbekistonning XVJdagi kvotasi 275,6 mln SDRni tashkil etdi. XVJ kvotalarini navbatdagi qayta ko'rib chiqish bo'yicha XVJ Boshqaruvchilar Kengashining qarori kuchga kirganidan keyin ya'ni 2016-yil yanvarida respublikamiz kvotasi 275,6 mln. SDRdan 551,2 mln. SDR ga yetkazildi. Bunda, kvotalarning umumiy sonidagi mamlakatimizning ulushi 0,116 foiz miqdorida saqlanib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi ovoz berish jarayonlarida o‘z tarkibiga Janubiy Koreya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yangi Gvineya Papuasi, Mongoliya, Vanuatu, Solomon orollari, Samoa, Seyshel orollari, Palau, Mikroneziya, Marshall orollari, Karibati va Tuvalu mamlakatlarini o‘z ichiga olgan guruh tarkibiga kiradi. Guruhga 2016-yildan boshlab Xinam ChOY rahbarlik qiladi. XVJdagi O‘zbekiston nomidan boshqaruvchi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – moliya vaziri, uning o‘rinbosari esa – Markaziy bank Raisi hisoblanadi. Markaziy bank XVJ bilan hamkorlik manzili qilib belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi 2003-yilning 15-oktabridan XVJ Bitimlari VIII moddasining 2 (a), 3 va 4 bo‘limlari bo‘yicha majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi.

Bitimlar IV moddasiga muvofiq maslahatlar berish va texnik yordam ko‘rsatish maqsadida XVJning missiyasi muntazam ravishda O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyuradi. Missiyalar faoliyati iqtisodiyot, moliya sektori va statistika sohalaridagi ishlar holatini o‘rganish hamda kelgusida amalga oshiriladigan islohotlarning yo‘nalishlarini belgilashga qaratilgan. 2017-yilda amalga oshirilgan islohotlar munosabati bilan XVJ bilan hamkorlik sezilarli ravishda faollashdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi o‘tgan yilning 19-21 aprel kunlari Vashington shahrida bo‘lib XVJ va Jahon banki Boshqaruvchilar kengashining yig‘ilishida ishtirok etdi. Shuningdek, XVJning ijro direktori K. Lagard O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nomiga maktub yo‘llab, unda mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlarni qo‘llab - quvvatlashini hamda texnik ko‘mak va tavsiyalar berish orqali yordam ko‘rsatishga tayyorligini bildirdi. Missiya tashrif yakunlari bo‘yicha quyidagi bayonotni berdi:

“Missiya Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ga asoslangan rasmiy organlarning iqtisodiyotni isloh qilish bo‘yicha kompleks rejalarini ma‘qullaydi. Mazkur rejalarining o‘z vaqtida va samarali ijro etilishi iqtisodiyotning sifatli ish o‘rinlari barpo etilishi va barqaror o‘sishini ta‘minlash salohiyatini sezilarli darajada oshishiga sharoit yaratadi. Respublikada valyuta siyosatini erkinlashtirish borasidagi islohotlar dasturi missiya tomonidan alohida e‘tibor berilgan holda ma‘qullandi. Valyuta kurslarini unifikatsiya qilish va valyuta resurslarini bozor tamoyillari asosida taqsimlash imkoniyatlarini yaratish O‘zbekiston Markaziy bankiga barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash va inflyatsiyani samarali nazorat qilishga yo‘naltirilgan pul-kredit siyosatini olib borishiga sharoit yaratadi. Shuningdek ushbu islohotlar tashqi raqobatbardoshlik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmlarini oshirish va ichki resurslar taqsimotini takomillashtirish orqali ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sish suratlarini tezlashtirishga yordam beradi. O‘zbekistonning sezilarli valyuta rezervlari ushbu islohotlarni dadil amalga oshirish imkonini beradi”.

XVJning Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlari departamenti direktori D. Azur 14-16-sentabr kunlari tashrif bilan Toshkent shahrida bo‘ldi. Ushbu missiya tomonidan e‘lon qilingan bayonotda quyidagilar qayd etildi: “O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida qator masalalarni hal etishga duch kelinishi mumkin va ushbu islohotlar mamlakatga yanada samarali va yakunda tez rivojlanuvchi iqtisodiy tizimga o‘tish imkonini beradi. Shuningdek, men mamlakat hukumatining hududiy hamkorlikni rivojlantirish va hududiy savdoni kengaytirishga qaratilgan tadbirlarini mamnunlik bilan ma‘qullayman”. Yuqori darajadagi O‘zbekiston delegatsiyasining AQShga tashrifi davomida Nyu-York shahrida 19-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning XVJ direktori - taqsimlovchisi K. Lagard bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi va unda Jamg‘arma rahbari O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlar jarayonlariga yuqori baho berdi va ularni qo‘llab-quvvatlashini bildirdi:

XULOSA

“O‘zbekistonning islohotlarni amalga oshirish borasidagi harakatlari oson bo‘lmaydi va uzoq davom etadi. Jamg‘armaning mamlakat iqtisodiyotini o‘shirish suratlari va aholining turmush darajasini yuksaltirish borasida yuqori darajalarga chiqarishda O‘zbekistonning sherigi bo‘lishi aniq maqsadi ekanligini yana bir bor tasdiqlayman”-, deb fikr bildirgan Ijroji direktor. O‘zbekistonning Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi bilan hamkorligi iqtisodiy islohotlar, valyuta siyosatini erkinlashtirish va global moliyaviy tizimga integratsiyalashishda muhim rol o‘ynaydi. Bu hamkorlik mamlakatimizning iqtisodiy o‘shirishiga, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga va xalqaro iqtisodiy tizimda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Sullivan Artur; Steven M. Sheffrin. “Economics: Principles in action”.Upper Saddle River, New Jersey 07458: Prentice Hall, 2003 — B.488.

2. What are the main concerns and criticism about the World Bank and IMF. Url: <http://www.brettonwoodsproject.org/item.shtml?x=320869>

3. Chomsky Offers Insight Into IMF, World Bank. Url: <http://tech.mit.edu/V120/N46/46chomsky.46n.html>

4 Articles of Agreement of the International Monetary Fund. Url: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/aa/index.htm>

5. O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) bilan hamkorligi to‘g‘risida ma‘lumotnoma. Url:<https://cbu.uz/uz/about/international-cooperation>